

**TOMATO BROWN RUGOSE FRUIT VIRUS – POMIDOR
JIGARRANG VIRUS KASALLIGI HAQIDA**

“OYBEK” O’KCHM inspektorlari:

Malikov Axroriddin.

Mamatqulov Ulug’bek.

Eshboyev Shohruh.



So’ngi yillarda o’simliklarni kasallantiradigan 1000 dan ortiq fitoviruslar aniqlangan bo’lib, bu viruslar yovvoyi o’simliklar bilan bir qatorda muhim qishloq xo’jalik o’simliklarni kasallantirib, hosildorlikni va mahsulot sifatini pasaytirib, xalq xo’jaligiga katta zarar yetkazmoqda. Bunday o’simliklar qatoriga pomidor, bodring, g’o’za, bug’doy kartoshka, bulg’or qalampiri, baqlajon, beda va loviya kabilarni keltirib o’tish mumkin. Shu jumladan, pomidor (*Lycopersicum esculentum*) o’simligining 20 dan ortiq o’simlik viruslari kasallantirishi aniqlangan. Bularga quydagilarni misol qilib olishimiz mumkin: pomidor mozaikasi virusi, tamaki mozaikasi virusining tomat shtami, pomidorning dog’dor so’lish kasalligi, bodring mozaikasi virusi kabi viruslar. Virusli kasalliklar bilan kasallangan pomidor o’simligining hosildorligini kamaytirishi, pomidor mevasi sifatining pasayishi bundan tashqari pomidor o’simligini vegetatsiya davrining qisqarishi ham o’rganilgan. Bu esa qishloq ho’jaligiga va mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Shunday ekan virusli kasalliklarga qarshi kurashishda va ularning tarqalishini aniqlash hamda qarshi kurash choralarini ishlab chiqish uchun ularni identifikatsiya qilish muhim sanaladi.

Pomidorning jigarrang bujmayish virusi (Tomato brown rugose fruit virus – ToBRFV) birinchi marta 2015-yilda Iordaniya va Isroilda qayd etilgan. Virus asosan pomidor va qalampir mahsulotlariga katta zarar yetkazadi. Ushbu virus Tobamovirus turiga mansub bo‘lib, juda tez tarqalish xususiyatiga ega. ToBRFV o‘simlik barglarida mozaikalar hosil qiladi, barglar o‘z holatini o‘zgartiradi, mevalarda jigarrang, ajinli dog‘lar paydo bo‘lib, rangsizlanadi va barglar deformatsiyalanadi.

2015-yilda Iordaniya issiqxonalarida ekilgan pomidor maydonlarida mavsum davomida o‘simlik barglarida deformatsiyalar hosil bo‘lib, mevalarida kuchli jigarrang xloroz belgilari paydo bo‘lgan. Xuddi shunday kasallik alomatlari 2014-yilning kuzida Isroilning Oxad shahrida paydo bo‘lgan va bu mamlakatda bir yil ichida juda tez tarqalish holati kuzatilgan.

Ushbu virus kasalligi Isroil va Iordaniyadan boshqa Yevropa mamlakatlariga ham tarqala boshlagan. Germaniyada 2018-yil, Italiyada esa 2019-yilda Piyemonte mintaqasida pomidor ekinlarida paydo bo‘lgan va ushbu epifitopiya yo‘q qilingan. AQSHning Kaliforniya shtatida kasallik 2018-yilning kuzida aniqlangan va Kaliforniya oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi departamenti tomonidan yo‘q qilingan.

Kasallik belgilari: alomatlar pomidor naviga qarab yengil yoki og‘ir bo‘lishi mumkin. Kasallikning yengil ko‘rinishida mozaikalar hosil bo‘lib, barglar rangi o‘zgaradi. Kasallikning og‘ir ko‘rinishida esa mevalarda jigarrang ajin va dog‘lar hosil bo‘lishi barobarida mevalarning sarg‘ayib ketishi hamda barglar holati o‘zgarishi kuzatiladi.

Kasallik urug‘lari, virus bilan ifloslangan asboblar, kiyimlar, mexanik vositalar va changlanish orqali tarqalishi mumkin. Pomidorning jigarrang bujmayish virusi kasalligiga chidamli pomidor navlari shu kungacha aniqlanmagan.

ToBRFV virusi pomidorga yuqori darajada zarar keltirishi tufayli pomidor yetishtiruvchi Germaniya va boshqa Yevropa ittifoqi davlatlari uchun katta iqtisodiy zarar keltirgan.

Qarshi kurash choralari: Virus mexanik vositalar orqali osonlik bilan yuqishi sababli har xil sirtlarda, uzoq vaqt - terida va qo‘lqopda kamida 2 soat, qattiq plastmassada kamida 3 soat, shisha, aluminiy va zanglamaydigan po‘latda kamida 1 oy saqlanadi. Epifitopiya aniqlanganda, ta‘sirini kamaytirish uchun issiqxonalarni tozalash, o‘simlik qoldiqlarini yo‘q qilish, issiqxona sirtlarini va pomidor yetishtirish uchun ishlatilgan ish qurollarini zararsizlantirish choralari ko‘riladi. Virusni yo‘q qilish uchun plastik idishlar +90° C da 5 daqiqa davomida ivitiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Agroko‘makchi mobil ilovasi

www.karantin.uz

www.paxtachi.uz

www.ares.uz